

Sirdaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2026-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2026-yilning yanvar-iyun oylarida, Sirdaryo viloyatida jami 3 709,9 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 116,4 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Sirdaryo viloyati *	3 709,9	116,4
Guliston sh.	625,3	116,7
Shirin sh.	196,6	124,7
Yangiyer sh.	373,5	120,4
Boyovut	58,8	116,6
Guliston	81,9	119,1
Mirzaobod	962,9	114,1
Oqoltin	46,7	136,4
Sardoba	308,3	128,5
Sayxunobod	90,1	125,2
Sirdaryo	243,1	113,8
Xovos	77,6	120,4

* Viloyat umumiy ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)


[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2026-yil yanvar-iyun oylarida Sirdaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 57,7 % ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 122,0 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 38,9 % ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 106,2 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 3,4 % ulushni va 2025-yilning mos davriga nisbatan 176,5 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	226,4	425,5	
<i>o'sish sur'ati, %</i>	118,2	158,7	
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	1 374,0	1 018,1	124,2
<i>o'sish sur'ati, %</i>	128,8	93,3	176,5
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	541,7		
<i>o'sish sur'ati, %</i>	108,8		

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2026-yilning yanvar-iyun oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 651,9 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 141,8 % ni va ularning umumiy hajmidagi ulushi 3,1 % ga ko'payib, 17,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 67,8 % to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 112,9 % ni tashkil etgan holda 2 516,3 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 14,6 % ni yoki 541,7 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 108,8 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Hududlar kesimida korxona turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik korxona va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik korxona va mikrofirma	Norasmiy sektor
Sirdaryo viloyati *	651,9	2 516,3	541,7	141,8	112,9	108,8
Guliston sh.	7,4	574,2	43,7	37,0	121,5	101,7
Shirin sh.	151,9	40,5	4,2	132,0	101,3	156,3
Yangiyer sh.	-	364,6	8,9	-	121,8	81,7
Boyovut	7,5	30,6	20,7	124,7	102,4	142,6
Guliston	25,1	47,2	9,6	98,9	132,0	125,7
Mirzaobod	191,0	760,1	11,8	2,4 m.	100,5	162,2
Oqoltin	11,7	25,1	9,9	2,8 m.	105,4	157,6
Sardoba	129,7	170,2	8,4	163,1	112,5	91,9
Sayxunobod	4,2	68,3	17,6	100,4	112,2	2,5 m.
Sirdaryo	31,2	166,0	45,9	79,3	149,8	72,4
Xovos	14,8	47,3	15,5	100,7	124,0	133,2

* Viloyat umumiy ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Oqoltin tumanida (2025-yilning mos davriga nisbatan 2,8 m.), Mirzaobod (2,4 m.) va Sardoba tumanida (163,1 %) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Sirdaryo tumanida (2025-yilning mos davriga nisbatan 149,8 %), Guliston tumani (132,0 %) va Xovos tumani (124,0 %) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;



d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;

e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;

f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
O. Xazratqulov
67 236-70-00 (2020)

